



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

F.L.Azizova

Z.A.Muminova

O'rnatilgan tartibda nazoratga olgan xolda ma'lumot va ishda qo'llash uchun

№04-03/-831
27 Mart 2024

Sh.A.Boymuradov
Проректор





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

100047, Toshkent shahri, akad. Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy. (+998) 71 2335967
www.academy.uz, devonxona@academy.uz, control@academy.uz

2024-yil 25-mart
№ 5/1255-672

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga

Nusxasi: Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlariga

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi №16-son buyrug'iga muvofiq 2024-yil 3-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidiumining katta majlislar zalida **"Uchinchi Renessans yosh olimlari: zamonaviy vazifalar, innovatsiya va istiqbol"** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Ushbu anjumanni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish maqsadida Sizdan tasarrufingizdagи олий о'кув ўртларда илмиy фаoliyat olib borayotgan yosh olimlarni o'z maqola va tezislari bilan faol ishtirok etishlarini ta'minlashda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Ilova: 2 varoq

Bosh ilmiy kotib

G.A. Baxadirov

Ijrochi: G.X. Tillayeva
tel.: +998 93 532 11 41



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O'ZR FA YOSH OLIMLAR KENGASHI O'ZR FA BIRLASHGAN KASABA UYUSHMASI QO'MITASI

AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi №16-son buyrug'iiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining prezidiumida "Uchinchi Renessans yosh olimlari: zamonaviy vazifalar, innovatsiya va istiqbol" mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman 2024-yil 3-may kuni o'tkaziladi.

Xamkor tashkilotlar:

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti,

O'ZR FA birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi.

Mazkur anjumanda xorijiy va respublika miqiyosida faoliyat yuritayotgan mutaxassis olimlar, shu sohada izlanishlar olib borayotgan doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar va boshqa mutaxassislar ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Barcha maqolalarga DOI raqami beriladi va Google Scholar bazasida indekslanadi!!!

Anjuman quyidagi yo'naliishlarda ish olib boradi:

1. Fizika-matematika va texnika fanlari (tegishli sohalarda).
2. Tabiiy fanlar (tegishli sohalarda).
3. Ijtimoiy va gumanitar fanlar.

Konferentsiyaga taqdim etilayotgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan talablar va rasmiylashtirish tartibi:

- *Maqola va tezislarni hajmi 3 betdan kam va 5 betdan ko'p bo'lmagan hajmda Microsoft Word, Times New Romanda 14 shriftda, 1,5 intervalda, chap tomondan 3 sm, o'ng tomondan 1,5 sm, yuqori va past tomondan 2 sm qoldirilgan holda yoziladi. Faylni muallif(mualliflar bir nechta bo'lsa, birinchi muallif)ning familiyasi bilan nomlanadi.*
- *tezis mavzusi bosh harflarda (14 shriftda) o'rtaga yozilib, keyingi satrda muallif(lar)ning ism-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish joyi va lavozimi. Undan 1,5 interval pastda xat boshidan tezis matni yoziladi;*
- *barcha iqtiboslar kvadrat qavsda beriladi [3.112-b];*
- *foydalanilgan adabiyotlar tezis yoki maqola oxirida alfavit tartibida keltiriladi;*
- *tezis elektron nusxada topshiriladi;*
- *Konferentsiya materiallari elektron shaklda 2024-yil 10-aprelga qadar +99893-532-11-41 telefon raqamiga https://t.me/TIPI_Tillaeva telegramm akkaunti orqali kirill yozuvida qabul qilinadi.*

Tashkiliy qo'mita konferentsiya maqsadiga mos kelmaydigan diniy va siyosiy mazmundagi materiallarni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Tashkiliy qo'mita maqola va tezislarni tahrir qilish huquqiga ega, ekspertlar xulosasiga ko'ra talabga javob bermaydigan va originalligi 70% dan kam ko'rsatkichli materiallar qabul qilinmaydi. Tezis va maqolalarning mazmuni va haqqoniyligi uchun mualliflar javobgardirlar. To'plamda e'lon qilinadigan maqola va tezislarni uchun badal puli kelishilgan narxda.

Konferentsiya materiallari asosida to‘plam tayyorlanadi. To‘plamning elektron nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O‘zR FA Yosh olimlar kengashi veb-saytlari (<http://academy.uz>, <http://yokacademy.uz>)ga joylashtiriladi.

Konferentsiya doirasida “**Eng yaxshi maqola**” nominatsiyasi bo‘yicha tanlov o‘tkazilib, g‘olib mualliflarning materiallaridan uch nafari O‘zR FA “**Yosh olimlar jurnali**”da (OAK tasarrufida) imtiyozli ravishda chop etiladi.

Tashkiliy qo‘mita manzili:

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi**

**Toshkent shaxri, Yashnobod tumani,
Ya.Gulyamov ko‘chasi, 70-uy**

Murojaat uchun tel:

f.f.n, dotsent G.H.Tillaeva

Telefon: (99893) 532-11-41.

Telegram: @smu_us (99893) 532-11-41